

**Bugun O'zbekiston davlat
san'at va madaniyat instituti
rektori, professor Nodirbek
Sayfullayev rahbarligida
institutning Nukus filialli
direktori, direktor
o'rinbosarlari, bo'lim
boshliqlari, fakultet
dekanlari va kafedra
mudirlari ishtirokida
navbatdagi yig'ilish bo'lib
o'tdi.**

Yig'ilishda ZOOM platformasi orqali ishtirok etgan institut rektori dastlab jamoani yangi o'quv yilining boshlanishi bilan muborakbod etib, ushbu o'quv yilida yuksak marralarni zabt etishlarini tiladi.

Shuningdek, filialda amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlar, madaniy va sport tadbirlari, o'tkazilgan turli musobaqalar va tanlovlarda erishilgan natijalar, o'quv auditoriyalari va boshqa binolarning 2024/2025-o'quv yiliga tayyorgarlik holati, talabalarni turar joy bilan ta'minlash masalalari kabi bir qator masalalar muhokama qilindi.

Yig'ilishning tashkiliy qismida rektor O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirining tegishli buyrug'iga asosan

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Nukus filialining Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha direktor o'rinbosari lavozimiga tayinlangan Yusupov Quanishbay Baltabayevichni filial jamoasiga tanishtirdi.

Quanishbay Yusupov 1977-yil Qoqaalpog'iston Respublikasi Chimboy tumanida tavallud topgan. 1999-yil Nukus davlat pedagogika institutini tamomlagan. Mutaxassisligi musiqa va dunyo madaniyati tarixi o'qituvchisi. Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasiga ega. Tayinlovga qadar filialning "Madaniyat faoliyati" kafedrasida faoliyat yuritgan.

Yig'ilish yakunida Nodirbek Sayfullayev Quanishbay Yusupovga yangi lavozimida omadlar tilab, filialning ilmiy salohiyati oshirish bo'yicha tavsiyalar ham berib o'tdi.

**□ O'zbekiston davlat san'at va
madaniyat instituti rektori,
professor Nodirbek
Sayfullayev «Estrada va
ommaviy tomoshalar san'ati»
kafedراسi mudiri, professor
Temur Rashidov tomonidan**

**«Estrada aktyorligi san'ati»
ta'lim yo'nalishi 4-kurs
talabalari bilan birgalikda
Rey Bredberining "Farengeyt
bo'yicha 451 daraja" asari
asosida sahnalashtirilgan
spektaklning navbatdagi
namoyishida ishtirok etdi.**

□ Qayd etish o'rinliki, mashhur fantast yozuvchi Rey Bredberining kitobxonlikka muhabbat va bilim muqaddasligi timsoliga aylangan "Farengeytning 451 darajasi" romani dunyodagi eng ko'p nashr etilgan kitoblardan biri bo'lib qolmoqda. Unda sayyoramiz aholisi uchun mushtarak bo'lgan muammolar – ommaviy madaniyat, jaholat va ma'naviyatsizlik qoralanadi.

□ Zamonaviy jahon teatrining eng yaxshi an'alarida sahnalashtirilgan yuksak saviyali spektakl mutaxassislar tomonidan katta qiziqish bilan kutib olinib, olqishlarga sazovor bo'ldi.

Institut rektori bugun yurtimizda san'at va madaniyatga qaratilayotgan e'tibor dunyo miqyosida katta qiziqishga sabab bo'layotgani, bu e'tibor va g'amxo'rlikni xorijiy hamkorlar ham uchrashuvlarda alohida e'tirof etayotganini mamnuniyat bilan qayd etib, bugungi spektaklning xalqaro miqyosdagi yutuqlarining ham sababi ayni shu ekanligini aytib o'tdi.

Shuningdek, spektaklni yuqori baholadi hamda ijodiy jamoani muvafaqqiyatli ijro bilan tabriklab, kelgusida bu kabi spektakllarni ko'paytirish va nafaqat institut miqyosida, balki respublika va xalqaro maydonda namoyish etilishi uchun zarur sharoit yaratishga va doimo qo'llab-quvvatlashga tayyor ekanligini bildirdi.

Qayd etish kerakki, ushbu spektakl Rossiya Federatsiyasi Moskva shahrida bo'lib o'tgan "Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi Xalqaro teatr san'ati festivali"da g'oliblikni qo'lga kiritgan.

0'zbekiston-Italiya ta'lim forumining tantanali ochilish marosimi bo'lib o'tdi.

Bugun Toshkent shahridagi Turin politexnika universitetida "Universitetlar hamkorligining yangi bosqichi – ikki davlat va jamiyat rivojlanishining muhim omili" mavzusida o'tkazilayotgan birinchi O'zbekiston-Italiya ta'lim forumining tantanali ochilish marosimi bo'lib o'tdi.

Ochilishda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri Qo'ng'iratboy Sharipov, Italiya Universitetlar va tadqiqotlar vaziri Anna Maria Bernini va Italiyaning 25 ga yaqin oliy ta'lim muassasasi, shuningdek, mamlakatimizning 40 dan ortiq yetakchi oliygohlari rektorlari qatorida O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori, professor Nodirbek Sayfullayev ham ishtirok etdi.

Forum doirasida ikki mamlakat universitetlari o'rtasida uzoq muddatli hamkorlik aloqalari uchun asos bo'lib xizmat

qiladigan kelishuv va memorandumlar imzolandi.

Shu jumladan, forumda O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori, professor Nodirbek Sayfullayev dastlab Italiyaning Bari universiteti Xalqaro munosabatlar bo'yicha prorektori Alessandro Rubino bilan uchrashdi hamda ikki oliy ta'lim muassasi o'rtasida hamkorlik memorandumi imzolandi.

Memorandumda ikki oliy ta'lim muassasi o'rtasida o'quv jarayonini takomillashtirish, bu borada zamonaviy usullar va o'qitish tizimlaridan foydalanish bo'yicha tajriba almashish, mutaxassislar, bakalavrlar, magistrlar, yuqori malakali kadrlar tayyorlash bo'yicha o'zaro manfaatli asosda o'quv-uslubiy materiallar almashish, bakalavr va magistratura yo'nalishlari bo'yicha ikki tomonlama ta'lim dasturlarini yo'lga qo'yish, talabalar almashinuvini tashkil etish, birgalikda ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarini rejalashtirish va amalga oshirish, o'qituvchilar va ilmiy xodimlar uchun ma'ruzalar, seminarlar va konsultatsiyalar tashkil etish, ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirish, tadqiqot guruhlarini, shuningdek, qo'shma ilmiy loyihalarni amalga oshirish markazini yaratish va boshqa ko'plab masalalar qamrab olingan.

Uchrashuv davomida rektor ushbu forum davlatlarimizning keng ko'lamli aloqalarining ta'lim sohasiga tadbiq etilishi ikki davlat oliy ta'lim muassasalarining kelgusi rivoji uchun ulkan imkoniyat yaratishini qayd etib, bugun o'rnatilayotgan hamkorlik ikki oliy ta'lim muassasi rivoji uchun muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidladi.

Mehmonlar ham yurtimizning boy tarixi, madaniy yutuqlari hamda bugun amalga oshirilayotgan ulkan o'zgarishlardan boxabar ekanligi, aynan keyingi sakkiz yildagi o'zgarishlar sabab O'zbekiston oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikka jiddiy qiziqayotganlarini qayd etib o'tishdi.

□Ma'lumot o'rnida ushbu universitet Italiyaning Bari shahrida

joylashgan. Yevropa Universitetlar Assotsiatsiyasi (EUA) bilan faol hamkorlik qiladi. Xalqaro QS reytingiga 740-o'rinni egallagan. Universitet biotibbiyot va tabiiy fanlar bo'yicha dunyodagi eng yaxshi universitetlardan biridir. THE mustaqil universitetlar reytingida dunyo bo'yicha 601-o'rinda qayd etilgan.

Shundan so'ng kuni kecha institutga tashrif buyurgan Roma Tre universiteti prorektori, professor Anna Liza Tota bilan uchrashuv bo'lib o'tdi hamda ikki oliy oliy ta'lim muassasi o'rtasida hamkorlik bitim imzolandi. Mazkur bitim bilan ikki oliy ta'lim muassasa o'rtasidagi mustahkam hamkorlik uchun asos yaratildi.

Shuningdek, teatr sotsiologiyasi bo'yicha mutaxassis hisoblangan Anna Liza Tota O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti unda juda iliq taassurot qoldirgani hamda kelgusida memorandum doirasida amalga oshiriladigan professor-o'qituvchilar almashinuvida o'zi ham ishtirok etib, talabalarga seminar o'tish istagini bildirdi.

**Bugun O'zbekiston davlat
san'at va madaniyat
institutiga forum doirasida
yurtimizda bo'lib turgan Roma
Tre universiteti prorektori**

Anna Liza Tota tashrif buyurdi.

Ma'lumki, joriy yilning 24-27- sentabr kunlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasi va Italiya Respublikasi o'rtasidagi kelishuvlarning amalga oshirilishini so'zsiz ta'minlash va strategik sheriklik munosabatlari yanada mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida» 2023-yil 25-iyuldagi 311/22-son qarori bilan tasdiqlangan «Yo'l xarita»si hamda «Italiya Respublikasi Prezidentining O'zbekistonga rasmiy tashrifi davomida erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida» 2023-yil 29-dekabrda 727/11-son qarori bilan tasdiqlangan «Yo'l xarita»sida belgilangan topshiriqlar ijrosini ta'minlash maqsadida birinchi O'zbekiston-Italiya ta'lim forumi bo'lib o'tadi.

Ayni paytda ushbu tadbirda ishtirok etish uchun yurtimizga 20 dan ortiq yetakchi oliy ta'lim muassasalari rektor va prorektorlari tashrif buyurgan.

Bugun O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutiga forum doirasida yurtimizda bo'lib turgan Roma Tre universiteti prorektori Anna Liza Tota tashrif buyurdi.

Mehmonlarni qabul qilar ekan institut rektori, professor Nodirbek Sayfullayev, avvalo, ularni yurtimizda ko'rib turganidan mamnun ekanligini bildirib, bugun O'zbekistonning jahon davlatlari bilan ochiqlik va oshkorlik tamoyillari asosida o'rnatilgan o'zaro manfaatli hamkorligi barcha sohalarni qamrab olganini, jumladan, oxirgi 8 yil davomida dunyoning ko'plab yetakchi oliy ta'lim muassasalari bilan samarali hamkorlik o'rnatilganini alohida ta'kidladi. Shuningdek, Italiyaning boy san'ati va madaniyatiga yurtimizda qiziqish yuqori ekanligini va bugun o'rnatilajak hamkorlik dunyoning eng qadimgi taraqqiyot o'choqlaridan bo'lgan ikki

davlatning madaniy aloqalarini yanada mustahkamlashga hissa qo'shishiga umid bildirdi.

O'z o'rnida, Roma Tre universiteti prorektori Anna Liza Tota ham O'zbekistonning boy madaniyati va tarixi uni doimo qiziqtirganini, shu ma'noda, bugungi hamkorlikdan juda ulkan natijalar kutayotganini, shuningdek, yurtimizda amalga oshirilayotgan ulkan o'zgarish va yangilanishlarni Italiya va dunyo jamoatchiligi qatorida katta qiziqish bilan kuzatayotganini ta'kidlab o'tdi.

Uchrashuvda kelgusida hamkorlik aloqalarini chuqurlashtirish, bakalavr va magistratura yo'nalishlari bo'yicha ikki tomonlama ta'lim dasturlarini yo'lga qo'yish, talabalar almashinuvini tashkil etish, birgalikda ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarini amalga oshirish va boshqa bir qancha muhim masalalar muhokama qilindi hamda Forum doirasida hamkorlik memorandumini imzolashga kelishib olindi.

Ma'lumot o'rnida, Roma Tre universiteti 1992-yilda tashkil etilgan bo'lib, tez suratlarda rivojlanmoqda. Ushbu ta'lim muassasi yuqori sifatli xalqaro tadqiqotlarni rag'batlantirish va tashkil etish, ilg'or ta'limni rivojlantirish va tarqatish, atrof-muhitni muhofaza qilish, xalqaro birdamlik tamoyillarini qo'llab-quvvatlaydi.

**“Xush kayfiyat” ko‘rik-
tanlovining respublika
bosqichida talabamiz 2-**

o'rinni egalladi.

Farg'ona Musiqali drama teatrida «Xush kayfiyat» ko'rik-tanlovining respublika bosqichi g'oliblarini taqdirlash marosimi bo'lib o'tdi

Taqdirlash marosimida O'zbekiston madaniyat vazirining birinchi o'rinbosari Bahodir Ahmedov ishtirok etib, ishtirokchilarni taqdirladi hamda kelgusidagi faoliyatlariga omad tiladi.

O'zgacha xush kayfiyat bilan o'tgan ushbu ko'rik tanlovda havaskor va professional askiyachi, qiziqchi hamda so'z ustalari o'z ijod namunalari bilan munosib ishtirok etishdi.

Quvonarli tomoni ushbu musobaqaning Qiziqchilik yo'nalishida O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Teatr san'ati fakulteti Musiqali teatr aktyorligi ta'lim yo'nalishi sirtqi ta'lim 5-bosqich talabasi Bahodir Fozilov 2-o'rinni egalladi

G'oliblikni qo'lga kiritgan ishtirokchilar Madaniyat vazirligi hamda Respublika askiya va qiziqchilik san'ati markazi tomonidan statuetka, diplom, qimmatbaho sovg'alar hamda pul mukofotlari bilan taqdirlandilar.

Institut jamoasi nomidan Bahodir Fozilovni mazkur yutuq bilan muborakbod etamiz hamda kelgusida bundanda yuqori marralarni zabt etishini tilab qolamiz.

**Bugun O'zbekiston davlat
san'at va madaniyat instituti
rektori rahbarligida
institutning barcha
prorektorlari, bo'lim
boshliqlari, fakultet
dekanlari va kafedra
mudirlari ishtirokida
navbatdagi yig'ilish bo'lib
o'tdi.**

□Yig'ilishda 2024/2025-o'quv yilida talabalarni TTJ va ijara uylari bilan to'liq qamrab olinganlik holati, talabalarining haftalik davomati, "FACE ID" tizimi orqali barcha institut talabalarining ro'yxatdan o'tganlik holati, institutga 7-8-oktabr kunlari Janubiy Koreyaning Geochang teatr maktabi vakillarining tashrifini tashkil etish va mahorat darslari o'tkazish, 2024/2025-o'quv yilida qabul qilingan talabalarining hujjatlarini HEMIS tizimida ro'yxatdan o'tkazilganlik holati kabi institut hayotiga aloqador bir qator masalalar muhokama qilindi.

□□Ushbu masalalar yuzasidan mutasaddilarning axborotlari tinglandi hamda barcha mas'ullarga tegishli topshiriqlar berildi.

Yig'ilish yuzasidan xulosa qilar ekan, institut rektori, professor Nodirbek Sayfullayev talabalarining sifatli ta'lim olishi uchun barchamiz mas'ul ekanligimizni qayd etib, bu

borada barchani faolikka va o'z xizmat vazifasini vijdonan bajarishga chorladi.

“Korrupsiyaga qarshi kurashishda barchamiz mas’ulmiz”

“Korrupsiyaga qarshi kurashishda barchamiz mas’ulmiz”

Korrupsiyaga qarshi kurash dunyo miqyosida bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan bir bo'lib qolmoqda. Bu illatga qarshi kurash ko'plab mamlakatlarni qamrab olmoqda. Hozirgi paytda respublikamizda korrupsiyaga qarshi kurash doirasida bir qator dasturlar qabul qilindi va ular bo'yicha keng qamrovli ishlar amalga oshirilib kelinmoqda.

Bugun O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida “Korrupsiyaga qarshi kurashishda barchamiz mas’ulmiz” shiori ostida davra suhbatlari bo'lib o'tdi.

□Mazkur davra suhbatida Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi boshlig'i Mirazim Parmanov, Madaniyat vazirligi Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi boshlig'i Komiljon Raximov, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi Mas'ul xodimi Miranshoh Rasulov, Jinoyat ishlari bo'yicha Mirzo Ulug'bek tuman sudining sudyasi Dilnoza Xaliknazarova, Toshkent shahar Adliya boshqarmasi mas'ul xodimi Shaxruz Samiyev, Mirzo Ulug'bek tumani Ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi Tergov bo'limi boshlig'i Zoirjon Saporov va institut mas'ullari ishtirok etdi.

□□Tadbir avvalida mehmonlarni tanishtirar ekan, Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor Shohbek Ergashev bugungi jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurash har birimizning yuksak vazifamiz ekanligini, doimo xalq e'tiborida bo'lgan san'atkor uchun bu mas'uliyat ikki hissa yuqori ekanligini ta'kidladi.

Suhbat davomida mehmonlar korrupsiyaning jamiyat taraqqiyotiga zarari, mamlakatning iqtisodiy, moliyaviy, ijtimoiy xavfsizligiga bevosita ta'sir qilishi, shuningdek, uning huquqiy oqibatlari, korrupsion holatga duch kelganda qay tartibda va qayerga murojaat qilish lozimligi to'g'risida batafsil ma'lumot berishdi.

Davra suhbatida ta'kidlanganidek, "Korrupsiyadan xalos bo'lish uchun inson tafakkurini, dunyoqarashini o'zgartirishimiz, uni stereotiplardan xalos qilishimiz va korrupsiyaga jazoning muqarrarligini tushuntirishimiz kerak".

□Shuningdek suhbat yakunida ishtirokchilarni qiziqtirgan barcha savollarga mutasaddilar tomonidan batafsil javob berildi.

Forum taassurotlari.

Joriy yilning 16-19-sentyabr kunlari Rossiya Federatsiyasining Ufa shahrida Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi ijodiy va ilmiy ziyolilarining XVII forumi bo'lib o'tdi.

"Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi: umumiy qadriyatlar va madaniyatlar xilma-xilligi" mavzusida bo'lib o'tgan ushbu forumda O'zbekiston madaniyat vaziri o'rinbosari Murodjon

Majidov rahbarligidagi mamlakatimiz delegatsiyasi tarkibida ishtirok etdik.

Forumning tantanali ochilish marosimi 17 sentyabr kuni “Toratau” kongress holida bo’lib o’tdi.

Shuningdek, Forum doirasida

- Hamdo’stlik mamlakatlari ijodiy innovatsiyalari va milliy madaniy an’analari;

- MDHda raqamli transformatsiya davrida fan va ta’lim;

- Volontyorlik ijtimoiy rivojlanish manbai sifatida: avlodlar o’rtasidagi aloqa;

- Hamdo’stlik mamlakatlari ijodiy universitetlari o’rtasidagi o’zaro hamkorlik;

- Hamdo’stlik davlatlarining inklyuziv san’ati: hamkorlik shakllari nomli sho’ba yig’ilishlari tashkil etildi.

“Hamdo’stlik mamlakatlari ijodiy universitetlari o’rtasidagi o’zaro hamkorlik” nomli sho’ba yig’ilishida “Madaniyat va san’at sohasida O’zbekistonning xalqaro aloqalari va munosabatlari” mavzusida ma’ruza qildim. Ma’ruzada bugun Yangi O’zbekistonning xalqaro maydondagi o’sib borayotgan roli, xorijiy davlatlar bilan o’rnatilayotgan madaniy hamkorlik, umuman bugungi o’zbek san’atining jahondagi o’rni va ahamiyati, yurtimizda Davlatimiz Rahbari tomonidan san’at va madaniyat sohasi rivojiga qaratilayotgan e’tibor va g’amxo’rlik, ushbu sohalarning bugungi taraqqiyoti, istiqbollari, shuningdek, institutda talabalarning sifatli bilim olishlari uchun yaratilgan imkoniyatlar haqida so’z yuritildi.

Forum dasturida belgilangan tadbirlardan tashqari, Rossiya Federatsiyasi Prezidentining xalqaro madaniy hamkorlik bo’yicha maxsus vakili Mixail Shvidkoy, Zagir Ismagilov nomidagi Ufa davlat san’at instituti rektori Ilmar Almuxametov, Moskva davlat madaniyat instituti rektori Yekaterina Kudrina va boshqa xorijlik ziyolilar bilan ham

uchrashib, mamlakatlarimizda olib borilayotgan ilmiy-ijodiy jarayonlar, amalga oshirilayotgan o'zgarishlar to'g'risida fikr almashildi, kelgusida birgalikda ilmiy konferensiyalar o'tkazish, ilmiy tajriba va ilmiy ma'lumotlar almashish, hamkorlikda madaniy tadbirlar o'tkazish kabi bir qator masalalar muhokama qilindi.

Shuningdek, MDH Yoshlar simfonik orkestri va F.Gaskarov nomidagi Davlat akademik milliy raqs ansamblining konsertlari va boshqa madaniy tadbirlarda ham ishtirok etdik

Xulosa qilib aytganda, mazkur Forumda ko'plab ziyolilar bilan fikr va tajriba almashdik. MDH davlatlaridagi ijodiy jarayonlar bilan yaqindan tanishdik. Eng muhimi esa yurtimizda so'ngi yillarda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar xorijda ham e'tibor va e'tirof qozonayotganiga guvoh bo'ldik.

O'zbekiston davlat san'at
va madaniyat instituti rektori,
professor Nodirbek Sayfullayev